ZAMONAVIY IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-uslubiy elektron jurnali — Sharq universiteti
ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

STRATEGIK LOYIHA TUSHUNCHASI VA UNING TASHKILOT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Izzatulloyeva Sevara Baxritdin qizi
Strategik rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni tashkil etish bo‘limi mutaxassisi
Sharq universiteti
ORCID: 0009-0002-7583-5662
Email: sevarabakhriddinovna@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952

Annotatsiya: Mazkur maqolada strategik loyiha tushunchasining mazmun-mohiyati va uning tashkilotni uzoq muddatli rivojlantirishdagi fundamental o‘rni tadqiq etiladi. Strategik loyihalar oddiy operatsion loyihalardan farqli o‘laroq, korxonaning bozordagi mavqei, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omil sifatida tahlil qilingan. Maqolada strategik loyihalarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning tashkilot maqsad va vazifalari bilan bog‘liqligi hamda kutilayotgan natijalarning kompaniya kelajagiga ta’siri yoritib berilgan. Shuningdek, resurslarni samarali taqsimlash orqali strategik maqsadlarga erishish mexanizmlari bo‘yicha xulosalar berilgan.

Аннотация: В данной статье исследуются сущность понятия «стратегический проект» и его фундаментальная роль в долгосрочном развитии организации. В отличие от обычных операционных проектов, стратегические проекты анализируются как ключевой фактор, определяющий рыночную позицию, конкурентоспособность и инновационный потенциал предприятия. В статье освещены особенности управления стратегическими проектами, их связь с целями и задачами организации, а также влияние ожидаемых результатов на будущее компании. Кроме того, представлены выводы о механизмах достижения стратегических целей посредством эффективного распределения ресурсов.

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Abstract: This article explores the essence of the “strategic project” concept and its fundamental role in the long-term development of an organization. Unlike routine operational projects, strategic projects are analyzed as a key factor determining the market position, competitiveness, and innovative potential of an enterprise. The article highlights the specific features of strategic project management, their alignment with organizational goals and objectives, and the impact of expected results on the company’s future. Furthermore, conclusions are presented regarding the mechanisms for achieving strategic goals through effective resource allocation.

Kalit so‘zlar: strategik loyiha, tashkilot rivojlanishi, strategik boshqaruv, raqobatbardoshlik, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, loyiha boshqaruvi.

Ключевые слова: стратегический проект, развитие организации, стратегическое управление, конкурентоспособность, инновации, цифровая экономика, управление проектами.

Keywords: strategic project, organizational development, strategic management, competitiveness, innovation, digital economy, project management.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini saqlab qolishi va bozor sharoitlariga moslashuvi strategik boshqaruvga bevosita bog‘liqdir. Strategik boshqaruv tizimida strategik loyihalar alohida ahamiyat kasb etib, ular tashkilot missiyasi va strategik maqsadlarini amalga oshirishning muhim instrumenti hisoblanadi. Shu bois strategik loyiha tushunchasining mohiyati, uning asosiy xususiyatlari hamda tashkilot rivojidagi o‘rni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishni talab etadi.

“Strategiya” atamasi qadimgi grek tilidagi “strategos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “general san’ati” degan ma’noni anglatadi. Dastlab harbiy sohaga oid tushuncha sifatida qo‘llanilgan ushbu termin keyinchalik boshqaruv va iqtisodiyot sohalariga

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

kirib kelgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham strategiya “yirik harbiy operatsiyalarni va umuman urush olib borish san’ati”, shuningdek, “ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati va ilmi” sifatida talqin etiladi. Zamonaviy boshqaruv nazariyasida esa strategiya tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga erishish yo‘lida resurslarni oqilona taqsimlash va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash jarayoni sifatida izohlanadi.

Bugungi kunda strategik boshqaruv nafaqat xususiy sektor, balki davlat boshqaruvi tizimida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [2] mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi, uni 2024-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi esa 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlandi [1]. Ushbu strategiyaning “Qonun ustuvorligini ta’minlash va xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yo‘nalishi doirasida Strategik islohotlar agentligi tomonidan “Strategik rejalashtirish to‘g‘risida”gi qonun loyihasining ishlab chiqilishi davlat boshqaruvida strategik yondashuv institutsional darajada mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Strategik yondashuvning kuchayishi loyiha boshqaruvi sohasida ham yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. An’anaviy loyiha boshqaruvi asosan loyiha doirasi, muddati va byudjeti doirasida natijaga erishishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda loyihalarning davlat yoki tashkilot strategiyasi bilan uyg‘unligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu nuqtada strategik loyiha boshqaruvi konsepsiyasi shakllanadi. Ushbu yondashuv loyihalarni tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari bilan integratsiyalash, resurslardan samarali foydalanish va strategik natijalarga erishishni ta’minlashga qaratilgan.

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Shu bois, O‘zbekiston sharoitida strategik loyiha boshqaruvining amaliy qo‘llanish darajasini o‘rganish, uning loyiha muvaffaqiyatiga ta’sirini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, strategik loyiha boshqaruvi elementlarining milliy tashkilotlar faoliyatidagi o‘rnini nazariy-konseptual asosda tahlil qilishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Strategik loyiha boshqaruvi nazariy jihatdan strategik menejment va loyiha boshqaruvi konsepsiyalarining integratsiyasi sifatida shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda mazkur yo‘nalish strategiyani amaliy natijalarga aylantirish mexanizmi sifatida talqin qilinadi [3].

Strategiya va uni amalga oshirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi eng chuqur o‘rganilgan yo‘nalishlardan biridir. Bu borada Robert S. Kaplan va David P. Norton tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard modeli muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action asarida strategiya faqat deklarativ hujjat bo‘lib qolmasligi, balki aniq ko‘rsatkichlar va loyihalar orqali amalga oshirilishi zarurligi asoslab berilgan [18]. Mualliflar strategiyani moliyaviy, mijozlar, ichki jarayonlar hamda o‘rganish va rivojlanish ko‘rsatkichlari orqali o‘lchashni taklif etadi. Ushbu yondashuv strategik loyiha boshqaruvining konseptual poydevorini tashkil etadi.

Raqobat ustunligi nazariyasi doirasida Michael E. Porter strategik pozitsiyalash orqali barqaror ustunlikka erishish mumkinligini asoslab bergan [19]. Porterning qarashlariga ko‘ra, operatsion samaradorlik yetarli emas — tashkilot o‘ziga xos strategik pozitsiyani egallashi lozim. Zamonaviy tadqiqotlarda strategik loyihalar aynan shu pozitsiyani amaliyotga tatbiq etuvchi instrument sifatida ko‘riladi. Demak, loyiha boshqaruvi strategiyaning ijro mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Strategiyani shakllanish jarayoni sifatida talqin qilgan olimlardan biri — Henry Mintzberg. U strategiyani faqat rejalashtirilgan jarayon emas, balki “emergent” (shakllanib boruvchi) hodisa sifatida ko‘radi [20]. Bu yondashuv strategik loyiha boshqaruvida moslashuvchanlik, o‘rganish va muhitga tezkor javob berish zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida ushbu konsepsiya dolzarb hisoblanadi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasida esa Joseph Schumpeter alohida o‘rin tutadi. Uning The Theory of Economic Development asarida innovatsiya iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida talqin qilinadi [21]. Schumpeter innovatsiyani “yangi kombinatsiyalarni joriy etish” deb izohlaydi. Zamonaviy amaliyotda ushbu “yangi kombinatsiyalar” ko‘pincha loyiha shaklida amalga oshiriladi. Shu bois strategik loyiha boshqaruvi innovatsion rivojlanish mexanizmi sifatida ham qaraladi.

Innovatsion faoliyatni o‘lchash va tizimlashtirish masalasida Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) va Eurostat tomonidan ishlab chiqilgan Oslo Manual 2018 metodologiyasi muhim manba hisoblanadi [5]. Ushbu qo‘llanmada innovatsion jarayon tizimli, rejalashtirilgan va boshqariladigan faoliyat sifatida talqin qilinadi. Bu esa innovatsiyalarni strategik loyiha doirasida boshqarish zaruratini metodologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Loyiha boshqaruvi amaliyoti nuqtayi nazaridan yetakchi professional institut — Project Management Institute (PMI) tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. PMI tomonidan e’lon qilinadigan Pulse of the Profession hisobotlarida strategik moslik (strategic alignment) yuqori bo‘lgan tashkilotlarda:

- muvaffaqiyatli loyihalar ulushi yuqoriligi,
- byudjet va muddat buzilishlari kamligi,
- biznes qiymati yaratish darajasi yuqoriroqligi

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatilgan. Bu natijalar strategik loyiha boshqaruvining amaliy samaradorligini empirik jihatdan tasdiqlaydi [6].

Zamonaviy tadqiqotlarda strategik loyiha boshqaruvi ko‘pincha portfel va dastur boshqaruvi bilan integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqiladi. Loyihalarni alohida emas, balki strategik portfel doirasida boshqarish resurslarni ustuvorlik asosida taqsimlash va maksimal qiymat yaratish imkonini beradi. Shu jihatdan strategik loyiha boshqaruvi tashkilotning umumiy boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi.

Raqamli transformatsiya loyihalari misolida ham strategik boshqaruvning ahamiyati tasdiqlanadi. Global tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, transformatsion tashabbuslarning muvaffaqiyatsizligi ko‘pincha strategik uyg‘unlik va o‘zgarishlarni boshqarish mexanizmlarining yetishmasligi bilan bog‘liq [7–9]. Bu esa strategik loyiha boshqaruvini zamonaviy iqtisodiyot sharoitida alohida ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Strategik loyiha boshqaruvi strategiyani amaliy natijalarga aylantiruvchi mexanizm hisoblanadi.
2. U raqobat ustunligini shakllantirish va mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.
3. Innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya jarayonlarida uning ahamiyati ortib bormoqda.
4. Empirik tadqiqotlar strategik moslik yuqori bo‘lgan tashkilotlarda loyiha natijadorligi yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, strategik loyiha boshqaruvi nazariy va empirik jihatdan yetarlicha asoslangan bo‘lsa-da, uni milliy iqtisodiyot, xususan O‘zbekiston sharoitida chuqur empirik tadqiq qilish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot jarayonida mavzuni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, mantiqiy izchillikni ta’minlash hamda tahlil va tadqiq etishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Maqolada strategik loyihalarni boshqarish tizimini joriy etish orqali biznes faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Ilmiy adabiyotlarda loyiha ma’lum vaqt, resurs va byudjet doirasida aniq natijaga erishishga qaratilgan vaqtinchalik faoliyatlar majmui sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv loyiha boshqaruvi bo‘yicha yetakchi professional tashkilot — Project Management Institute (PMI) tomonidan ishlab chiqilgan PMBOK qo‘llanmasida ham o‘z ifodasini topgan. Unda loyiha vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lib, noyob mahsulot, xizmat yoki natija yaratishga qaratilishi ta’kidlanadi [22].

Strategik loyiha esa operatsion yoki taktik loyihalardan farqli ravishda tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, fundamental o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tashabbusdir. Bunday loyihalar yuqori noaniqlik, katta investitsiya hajmi va keng manfaatdor tomonlar doirasiga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shu sababli strategik loyiha nafaqat loyiha menejeri, balki oliy rahbariyat darajasida boshqariladigan tashabbus hisoblanadi.

Kaplan va Norton tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard konsepsiyasi strategik loyihalarning mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ularning fikricha, strategiya amaliy tashabbuslar va loyihalar orqali joriy etilmaguncha real natija bermaydi [18]. Tadqiqotlarda kompaniyalarning qariyb 70 foizida strategik maqsadlarning amalga oshmay qolishiga asosiy sabab sifatida aynan strategik

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

tashabbuslarni yetarli darajada boshqarmaslik ko‘rsatiladi [4]. Bu esa strategik loyiha boshqaruvini alohida boshqaruv yo‘nalishi sifatida shakllantirish zaruratini asoslaydi.

Tashkilot faoliyatidan kelib chiqib, strategik loyihalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratiladi:

1. Innovatsion strategik loyihalar – yangi mahsulot yoki xizmat yaratish, yangi biznes-model joriy etish bilan bog‘liq tashabbuslar [11].
2. Texnologik strategik loyihalar – ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan loyihalar.
3. Institutsional strategik loyihalar – boshqaruv tizimi, tashkiliy tuzilma yoki korporativ madaniyatni tubdan o‘zgartirish bilan bog‘liq tashabbuslar [14].
4. Investitsion strategik loyihalar – yirik kapital qo‘yilmalar asosida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki yangi yo‘nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar [10], [13], [15]–[17].
5. Raqamli transformatsiya loyihalari – biznes jarayonlarni raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tashkilot modelini o‘zgartirishga qaratilgan tashabbuslar [12].

OECD va Yevropa Ittifoqi tomonidan e’lon qilinadigan innovatsiyalar bo‘yicha hisobotlarda (European Innovation Scoreboard, OECD STI Scoreboard) rivojlangan davlatlardagi innovatsion kompaniyalarning aksariyati innovatsiyani tasodifiy jarayon emas, balki portfel boshqaruvi va strategik loyihalar orqali amalga oshirishi qayd etilgan. Bu innovatsion rivojlanish strategik loyiha boshqaruvi bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi.

PMI tomonidan e’lon qilinadigan Pulse of the Profession hisobotlarida strategik moslik darajasi yuqori bo‘lgan tashkilotlarda loyiha muvaffaqiyati sezilarli darajada yuqoriroq ekani statistik ma’lumotlar bilan tasdiqlangan [6]. Strategiya bilan

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

uyg‘unlashtirilmagan loyihalarda esa byudjetdan chiqish va maqsadga erishmaslik ehtimoli yuqori bo‘ladi.

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya strategik loyihalarning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. World Economic Forum, McKinsey & Company, Boston Consulting Group va Gartner tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiya tashabbuslarining taxminan 70 foizi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi [7–9]. Asosiy sabablar sifatida:

- tashabbuslarning strategik loyiha sifatida to‘liq shakllantirilmagani;
- aniq strategik maqsadlar bilan bog‘lanmagani;
- o‘zgarishlarni boshqarish mexanizmlarining yetishmasligi ko‘rsatiladi.

Bu natijalar raqamli transformatsiya tashabbuslarini oddiy IT-loyiha sifatida emas, balki strategik loyiha sifatida boshqarish zarurligini ilmiy va empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, strategik loyihalar tashkilotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy boshqaruv amaliyotida strategik loyiha boshqaruvini joriy etish nafaqat operatsion samaradorlikni, balki innovatsion salohiyat va raqobatbardoshlikni ham sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, strategiyani shakllantirish menejerlik faoliyatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda ayrim menejerlar puxta ishlab chiqilgan strategiyaga ega bo‘lsalar-da, uni samarali tarzda amalga oshira olmaydilar [4]. Boshqa menejerlar esa nisbatan oddiy strategiyani ishlab chiqib, uni yuqori darajada tatbiq etishga erishadilar. Strategiyaning puxta rejalashtirilganligi va uning amaliy ijrosi qanchalik samarali bo‘lsa, kompaniyaning bozor pozitsiyasi shunchalik mustahkamlanadi. Hatto boshqaruv tizimi mukammal shakllangan

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

tashkilotlar ham kutilmagan salbiy holatlarga duch kelishi mumkin. Shu bilan birga, to‘g‘ri tanlangan va samarali amalga oshirilgan strategiya kuchli raqobat, ichki muammolar hamda noaniq sharoitlarga qaramay, bozorda barqaror va muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun mustahkam asos yaratadi.

Strategik boshqaruv tamoyillarini to‘g‘ri belgilash va boshqaruv tizimining samarali ishlashini ta’minlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi nomutanosibliklar, ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari, shuningdek, xomashyo va moddiy resurslardan samarasiz foydalanish holatlarining oldini olishdan iboratdir. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni boshqarish jarayonini bozor talablari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda korxonalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va samarali boshqarish orqali yuqori daromadga erishish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda strategik rejalashtirish va strategik boshqaruv tizimi, shuningdek, ularni amalda qo‘llay oladigan malakali rahbarlar hamda top-menejerlarning roli beqiyosdir. To‘g‘ri tanlangan va puxta rejalashtirilgan strategik boshqaruv tizimi korxona va tashkilotlar, jumladan moliya muassasalarining muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, tashkilotlarda strategik loyihalarni operatsion loyihalardan ajratib, ularni oliy rahbariyat darajasida boshqarish tizimini joriy etish; ikkinchidan, har bir loyihani tashkilotning strategik maqsadlari va aniq ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash orqali strategik moslikni ta’minlash; uchinchidan, loyihalarni alohida emas, balki yagona strategik portfel doirasida ustuvorlik asosida boshqarish va resurslarni shu asosda taqsimlash; to‘rtinchidan, ayniqsa raqamli transformatsiya tashabbuslarida o‘zgarishlarni boshqarish mexanizmlarini loyihaning ajralmas qismi sifatida shakllantirish. Keyingi tadqiqotlarda strategik loyiha boshqaruvining O‘zbekiston

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

tashkilotlari faoliyatiga ta’sirini empirik ma’lumotlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

[3] Schmidt T. Strategic Project Management Made Simple: Solution Tools for Leaders and Teams. Hoboken: Wiley, 2009.

[4] Sterling T. The Leadership Gap: Understanding Strategy Execution Failure. 2024, Aug 27.

[5] OECD/Eurostat. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation, 4th Edition. Paris/Luxembourg: OECD Publishing/Eurostat, 2018. https://doi.org/10.1787/9789264304604-en

[6] Project Management Institute (PMI) – “Pulse of the Profession”

[7] World Economic Forum (WEF) The Digital Transformation of Business

[8] McKinsey & Company: Perspectives on Transformation

[9] World Economic Forum White Papers: Maximizing the Return on Digital Investments

[10] Атамурадов Ш. Замонавий лойихалар учун венчур капиталини жалб қилиш масалалари. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 2024, vol. 5, no. 3, pp. 92–96.

[11] Инновацион тадбиркорлик фаолиятида стратегик бошқарувнинг аҳамияти. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 2024, vol. 4, no. 10, pp. 309–316. https://doi.org/10.55439/AFA/vol4_iss10/730

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

[12] Инновацион тадбиркорликда рақамли технологияларни жорий этишнинг афзалликлари ва муаммолари. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 2025, vol. 5, no. 1, pp. 40–49. https://doi.org/10.55439/AFA/vol5_iss01/866

[13] Ўзбекистон шароитида инновацион тадбиркорлик учун венчур инвестицияларини жалб қилиш. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 2024, vol. 4, no. 7, pp. 110–112. https://doi.org/10.55439/AFA/vol4_iss07/428

[14] Атамурадов Ш. А. Инновацион тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришда институционал ислоҳотларнинг аҳамияти. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), 2025, no. 10, pp. 22–33.

[15] Атамурадов Ш. А. Жаҳон мамлакатларида инновацион фаолиятни венчур молиялаштириш тизимининг ривожланиши. Journal of Advances in Engineering Technology, 2022, no. 4, pp. 42–46. https://doi.org/10.24412/2181-1431-2022-4-42-46

[16] Атамурадов Ш. А. Венчур инвестицияларининг глобал тенденциялари ва Ўзбекистон тажрибалари. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), 2024, no. 9, pp. 11–24.

[17] Atamuradov Sh. Financing of innovative projects through venture funds and the types of risk involved in it. Economics and Innovative Technologies, 2023, vol. 11, no. 1, pp. 24–35. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a3

[18] Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press, 1996.

[19] Porter M. E. What Is Strategy? Harvard Business Review, 1996, vol. 74, no. 6, pp. 61–78.

[20] Mintzberg H., Waters J. A. Of Strategies, Deliberate and Emergent. Strategic Management Journal, 1985, vol. 6, no. 3, pp. 257–272.

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 **Vol. 1 No. 1 (2026)**

[21] Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.

[22] Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide), 7th ed. Newtown Square, PA: PMI, 2021.

DOI: https://doi.org/10.66493/64vvq952
© Sharq universiteti, 2026